

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI  
SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
URGANCH FILIALI**

*D.O.Ro'zmetova A.J.Jumaniyozov*

**DEUTSCH FUR  
MEDIZINSTUDENTEN**

*Tibbiyot oliy o'quv yurtlari  
talabalari uchun qo'llanma*

**URGANCH — 2008**

Ro'zmetova D.O. Jumaniyozov A.J., Deutsch fur Medizinstudenten **Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma. — Urganch, 2008. — 66 B.**

Qo'llanma nemis tili fani bo'yicha tuzilgan va tibbiyot oliy o'quv yurtlari 1-kurs talabalariga mo'ljallangan. Qo'llanma lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida tayyorlangan va unga dasturda mavjud asosiy fonetik, grammatik va leksik materiallar kiritilgan.

#### Taqrizchilar:

**Satimov U. S.**

— Urganch Davlat universiteti "Tillar" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor;

**Raximbaeva H. R.**

— Xorazm viloyat pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Tillar" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Ilmiy kengashining 2008 yil 18 oktyabr majlis qaroriga (3-son bayonnoma) binoan nashr qilindi.

© Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, 2008.

## ALFAVIT

Tilda harflarning muayyan tartibda joylashtirishga alfavit deyiladi.

Nemis tili alfavitida 26 ta harf bo'lib, ulardan 6 tasi unli (a, e, i, o, u, y), qolgan 20 tasi undoshdir. Har bir tilda bolganidek, nemis tili harflari ham bosma va yozma, katta va kichik yozilish shakillariga egadir.

Bosma harflar	Harflarning nomi	Bosma harflar	Harflarning nomi
Aa	(o)	Nn	(en)
Bb	(be)	Oo	(o')
Cc	(tse)	Pp	(pe)
Dd	( de)	Qq	(qu)
Ee	( e )	Rr	(er)
G'f	( ef )	Ss	(es)
Gg	( ge)	Tt	(te)
Hh	(xa )	Uu	(u)
Ii	( i )	Vv	(fou)
Jj	( yo't )	Ww	(ve)
Kk	( qo )	Xx	(iks)
Ll	( el )	Yy	(ipsilo'n)
Mm	( em )	Zz	(tset)

### 1-MASHG'ULOT

**Fonetika:** Alfavit. Harf va harf birikmalarining imlo va talaffuz qoidalari. Unli va undosh tovushlar. Sodda darak gaplarda intonatsia.

**Leksika:** Muloqat (tanishuv)  
Gesprdch (Vorstellung)

**Grammatika:** Artikllar. Ot. Kelishiklar.  
„haben“, "sein", " werden" fellarining „Prasens" shakli  
Kishilik olmoshlari. Sodda darak gap va ularda so'z tartibi.

Ch – x  
Sch – sh  
Tsch – ch  
Sh – j

Ää – e (etik)  
Öö - o' (o'lka)  
Üü - u (uy)

ei, ai - oy (Oydin)  
eu, äu – o'y (o'yin)  
au – ao' (bu diftong o'zbek tilda yo'q).

Nemis tilidagi 26 ta harf 45 ta tovushni ifodalaydi. Har bir harfning qanday tovushni ifodalashi uning soʻzdagi oʻrni, boshqa harf bilan birikib kelishiga bogʻliq boʻladi.

Quyida ana shunday holatlarni koʻrib chiqamiz:

1. Nemis tilidagi “a” harfi soʻzdagi oʻrnidan qatʼiy nazar bitta tovushni ifodalaydi. Nemis (a) tovushi oʻzbek (o) tovushiga oʻxshab oʻqiladi: Ada, Adler, Anna.

2. Nemis tilidagi “b” harfi soʻzdagi oʻrniga koʻra ikki tovushni anglatadi:

a) unlilardan oldin va ikki unli oʻrtasida oʻzbekchadagi jarangli portlovchi (b) tovushi singari oʻqiladi: baden, abends, aber, eben.

b) Boʻgʻin va soʻz oxirida jarangsiz undoshlardan oldin esa “b” harfi jarangsizlanadi va oʻzbekchadagi jarangsiz (p) tovushidek oʻqiladi: ab, ob, lebt, Herbst.

3. Nemis tilidagi “c” harfi ikki tovushni anglatadi. Bu harf a, o, u unlilaridan oldin kelsa, oʻzbekchadagi (q) (Café, Conto) kabi i, e, ie, ä, ö, ü unlilaridan oldin kelsa oʻzbekchadagi (ts) tovushiga oʻxshab oʻqiladi: Cäsar, Cent.

Bu harf nemis tiliga xos emas, yaʼni u asli nemischa boʻlgan soʻzlarda uchramaydi. Uni faqat nemis tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlardagina uchratish mumkin. Shu sababli bu harf soʻzning qaysi tildan qabul qilinganligiga koʻra boshqacha talaffuz qilinishi ham mumkin. Masalan: italyanacha Cello – chelloʻ, frantsuzcha Centime – satin oʻqiladi.

4. Nemischa “d” harfi ikki xil oʻqiladi. Unlilardan oldin va ikki unli oʻrtasida kelsa, oʻzbekchadagi jarangli (d) tovushidek; der, das, baden, Leder; soʻz va boʻgʻin oxirida kelsa, (t) tovushiga yaqin talaffuz qilinadi: Hand, Band, Herdmeister.

5. Nemischa “e” harfining oʻqilish xususiyati toʻrt xil:

a) ochiq boʻgʻin, shartli yopiq boʻgʻin, urgʻuli boʻgʻin oxirida oʻzbek tilidagi “emoq, emirilish” soʻzlaridagi (e) kabi oʻqiladi:

Leber	Weg
Leda	Helena

b) yopiq boʻgʻin, qoʻsh undosh, ikki yoki undan ortiq tovushlardan oldin kelsa, oʻzbekchadagi etik, eshik soʻzlaridagi (e) tovushidek oʻqiladi:

Sendung	Bett
Mensch	Werk

c) urgʻusiz boʻgʻinida kelganda „e“ harfi reduqtsiyaga uchraydi, yaʼni zaif oʻqiladi, bu „M u r m e l l a u t“ deyiladi. Bu tovushning talaffuzi oʻzbek tilida soʻzning oxirgi boʻgʻinida keladigan (i) (bordi, kelamiz) tovushining oʻqilishiga oʻxshab ketadi:

andere	Mantel
kommen	haben

d) „i“ unlisidan keyin kelganda „e“ harfi oʻqilmaydi, (i) tovushining choʻzib oʻqilishini bildirib, choʻziqlik belgisi xizmatini oʻtaydi: sie, liegen.

6. Nemis „, f“ o‘zbek tilidagi (f) tovushi kabi o‘qiladi:

Fabrik	Furche
Fenster	fett

7. Nemis „, g“ harfi ikki xil talaffuz qilinib, unilardan oldin yoki ikki unli o‘rtasida kelsa, o‘zbekchadagi jarangli (g) tovushiga o‘xshab o‘qiladi:

gehen	gut
Gans	legen

Bo‘g‘in so‘z oxiri va jarangsiz tovushlardan oldin kelsa, o‘zbekchadagi (q) tovushiga yaqin o‘qiladi:

Tag	liegt
Weg	sagt.

Bu harf fransuz tilidan kirib kelgan ayrim so‘zlarda „, j“ harfi o‘zbekchadagi (j) tovushiga o‘xshab o‘qiladi:

Genie	–	geniy
genieren	–	uyalmoq

8. Nemis „, h“ harfini o‘qishda ikki narsaga e‘tibor berish lozim:

a) so‘z va bo‘g‘in boshida kelgan “ h ” harfi o‘zbek tilidagi jarangsiz (h) tovushiga o‘xshab o‘qiladi:

haben	woher
dahin	Hase

b) unidan keyin, ikki unli o‘rtasida kelgan „, h“ harfi o‘qilmaydi, faqat oldida kelayotgan unlining cho‘ziqligini bildiradi:

Bahn	Lohn
Sehen	gehen

9. Nemis „, i“ harfi o‘zbek (i) tovushiga o‘xshab o‘qiladi.

Faqat “ i ” harfining cho‘ziq (liegen, tief) va qisqa (Kind, Wind, listig) talaffuz qilinish holatlariga e‘tibor berish lozim.

10. Nemis “ j ” harfi o‘zbek tilidagi “ y ” tovushiga yaqin ifodalanadi:

Junge	Jubeln
Jucken	Jurte

Bu harf ayrim chet tillardan kirgan so‘zlarda (j) yoki (x) tovushi kabi talaffuz qilinadi:

Juri	-	gyuri
Journal	-	jurnal
Jose	-	xo‘se
Junta	-	xunta *****

11. Nemis “ k ” harfi o‘zbek (q) harfidek o‘qiladi: Karte, kommen Kur, Kopf.

12. Nemis „, L“ harfi (l) tovushiga nisbatan biroz yumshoqroq talaffuz qilinadi:

Leber	Liebe
Lende	Leben

13. Nemis „, m“ harfi o‘zbekchadagi lab – burun (m) tovushiga yaqin turadi:

Mann	Mutter
kommen	Magen

14. Nemis „n“ harfi o‘zbekchada burun (n) tovushi kabi o‘qiladi:

Name	Nase
kennen	Fenster

15. Nemis „o“ harfi so‘zdagi o‘rnidan qat‘iy nazar, o‘zbekcha – „o‘tin“ so‘zidagi (o‘) tovushiga o‘xshab talaffuz qilinadi:

Lohn	Kost
Mond	Politik

16. Nemis „p“ harfi o‘zbek tilidagi jarangsiz (p) tovushidek o‘qiladi, faqat nemis tilida u biroz zarbliroq o‘qilishi lozim:

Pappel	Pulver
palpiere	pendeln

17. Nemis „q“ harfining talaffuzi o‘zbekchadagi (q) tovushiga o‘xshab ketadi.

U asosan nemis tilida chet tillardan kirgan so‘zlarda uchraydi, doimo „u“ harfi bilan

birga keladi va „qv“ deb o‘qiladi:

bequem	Qual
Quadrat	Quantum
Quarz	quälen

18. Nemis „r“ harfining o‘qilishi uning so‘da kelish o‘rniga bog‘iliq bo‘ladi.

a) so‘z va bo‘g‘in boshida, unlilardan oldin, ikki unli o‘rtasida undoshlar bilan

birga kelganda, o‘zbek tilidagi (r) tovushiga o‘xshab o‘qiladi:

Rabe	Regen
aroma	Rachen

b) urg‘usiz bo‘g‘inlarda yarim unli, yarim undoshlik xususiyatini kasb etadi:

Mutter	Bücher
Verhör	mager

Bu tovush talaffuzini mukammalroq egallash uchun odatda sof nemischa nutqni eshitish va unga taqlid qilib mashq qilish tavsiya etiladi.

19. Nemis „s“ harfi uch xil o‘qilish shakliga ega:

a) unlilardan oldin va ikki unli o‘rtasida o‘zbekcha (z) tovushiga yaqin o‘qiladi:

Salbe	Lesen
Sie	sehen

b) „s“ harfi so‘z (o‘zak) boshida p, t undoshlaridan oldin kelsa o‘zbekchadagi (sh)

tovushi kabi o‘qiladi, faqat sal shovqinliroq talaffuz e‘tiladi:

Sport	Student
bestehen	Speise

c) bo‘g‘in va so‘z oxirida o‘zbekcha (s) tovushidek talaffuz qilinadi:

Maske	Haus
-------	------

20. Nemis „t“ harfi o'zbekcha jarangsiz portlovchi (t) tovushiga ancha yaqin bo'lib, faqat sal zarbliroq o'qilishi kerak:

raus	Brust
Tante	Tablette
Tisch	Bett

Chet tillaridan kirib kelgan ayrim so'zlarda (ts) bo'lib ham o'qiladi:

Aktion	Diktion
Operation	Station

21. Nemis „u“ harfi o'zbekcha (u) tovushiga o'xshaydi:

Uta	Hut
Urin	Ruhe

22. Nemis „v“ harfi ikki xil o'qiladi.

a) nimischa so'zlarda o'zbekchadagi (v) tovushi kabi o'qiladi:

vater	vier
von	Vorhof

b) nemis tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarda o'zbek tilidagi (v) tovushi kabi o'qiladi:

November	Verb
Nerven	Vase

23. Nemis „w“ harfi o'zbekcha (v) tovushiga juda yaqin:

Wand	Weber
Wickel	wohnen

24. Nemis „x“ harfi o'zbekchadagi (qs) kabi o'qiladi:

Text	Torax
Marx	Reflex

25. Nemis „y“ harfi ikki xil o'qiladi. Birinchi xolatda uy, kuy so'zlaridagi (u) tovushi kabi o'qiladi:

Analyse	Synonyme
---------	----------

Ikkinchi shakli o'zbekcha (i) tovushiga o'xshab ketadi: U asosan chet tillardan kirgan so'zlarda uchraydi:

Juri – jyuri	Aryk – ariq
--------------	-------------

26. Nemis „z“ harfi o'zbekcha (ts) tovushi kabi o'qiladi:

Zone	Zimmer
Arzt	Zahn

Yuqorida aytib o'tilgan tovushlardan tashqari yana ayrim tovushlar borki, muayyan harflarning birikividan tashkil topadi:

1. „c“ va „h“ harflari „ch“ (tse - xa) birikmasini tashkil qiladi va bu birikma uch xil o'qiladi.

a) „ch“ harflar birikmasi a, o, u unilari au diftongidan keyin kelsa, o'zbekchadagi „taxta, paxta“ so'zlaridagi (x) tovushiga o'xshab o'qiladi va u (x) axlaut nomi bilan yuritiladi:

Bach	Buch
doch	nach

b) „ch“ harflar birikmasi i, e, a, o, m, n, l, r, ei, eu, au tovushlaridan keyin kelsa (h) kabi o'qiladi. Bu tovush jarangsiz, sirg'aluvchi, til o'rta undosh tovushdir. Uni talaffuz qilish uchun til o'rtasi tekis ko'tarilib, orqa qismi tanglayning orqaroq qismiga yaqinlashtiriladi, tilning uchi esa pastki tishlar milkiga tekkisikib, o'pkadan kelayotgan havo oqimi til va tanglay oralig'ida hosil bo'lgan tor bo'shliqdan chiqaziladi:

ich	echt	Bäche
mich	Löcher	Bücher

c) „ch“ harflar birikmasi „s“ harfidan oldin kelsa (k) tovushini beradi:

wachsen	sechs
Achsel	wecheln

d) „ig“ harflar birikmasi (qo'shimchasi) ham so'z oxirida „Ich – Laut“ bo'lib o'qiladi:

richtig	selig
wenig	wichtig

2) „sch“ (es – tse – ha) harflar birikmasi bilan (sh) tovushini beradi. Nemischa (sh) o'zbekchaga karaganda sal shovqinliroq o'qiladi:

Schule	Schlund
waschen	schreiben

3) „tsch“ (te – es – tse – ha) harflar birikmasi (ch) tovushini bildirib, o'zbekcha (ch) ga qaraganda sal shovqinliroq o'qiladi:

Kutscher	Tschirtschiq
Deutsch	Dolmetscher

4) „sh“ (es – ha) harflar birikmasi (j) tovushiga o'xshab o'qiladi va bu harflar birikmasi faqat boshqa tillardan kirgan so'zlarda uchraydi:

Shukow	Shenja
--------	--------

5) „hg“ (en – ge) harflar birikmasi a n g l a u t deyiladi va u o'zbekchadagi (hg) tovushiga biroz o'xshab talaffuz etiladi:

lang	Menge
Mangel	Schlange

6) „n“ harfi o'zak tarkibida „k“ harfidan oldin kelsa ham (hg) kabi o'qiladi:

danken	senken
Schenkel	Kranke

7) „ck“ (tse – ka) harflar birikmasi o'zbekchadagi (q) kabi o'qiladi:

Ecke	Decke
<b>Sack</b>	<b>Backe</b>

### Unli va undosh tovushlar

Ma'lumki til tovushlari hosil bo'lish xususiyatiga ko'ra unli va undoshlarga bo'linadi. Talaffuzida o'pkadan chiqqan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasa unli tovushlar hosil bo'ladi. Havo to'siqqa uchrasa undosh tovushlar hosil bo'ladi. Undoshlar talaffuzini cho'zib bo'lmaydi, bunga unlilarning hosil bo'lishidagi muayyan to'siq xalaqit beradi.



Unlilarni esa istalgancha cho'ziq talaffuz qilish mumkin. Shunga ko'ra nemis unli tovushlarining quyidagi talaffuz ko'rinishlari mavjud:

- (a:) haben, fahren, Staat
- (a) kalt, Satz, Schall
- (o:) hoben, Tor, wohnen
- (ɔ) dort, Wolle
- (u:) Kuchen, Tuch, Schule
- (v) und, Kunst, turnen
- (i) sie, Igel, Ihn
- (⊥) ist, Wind, sich
- (e:) Beeren, Kehren, See
- (ɛ:) Bär, stählen, sähen**
- (ɛ) decken, Ecke, Hände
- (y:) Bühne, Tücher, kühn
- (y) Brücke, rücken
- (Ø) schön, Größe, Öl
- (æ) Hölle, Tröpfen
- (ə) leere, bekommen
- (ae) heißen, Mai, Bayern
- (ao) Raum, rauchen, Baum
- (ɔ Ø) Häuser, neu, Träume

*Nemis tili undoshlar sistemasida quyidagi tovushlar bor:*

- |                             |                               |
|-----------------------------|-------------------------------|
| (p) Park, Pult, Papier      | (j) Jahr, ja, jagen           |
| (b) haben, baden, leben     | (m) Morgen, am, Ameise        |
| (t) Tag, Tat, mit           | (n) Nähe, erinnern, Nase      |
| (d) da, senden, Hände       | (ŋ) singen, bringen, tanken   |
| (k) Kragen, kalt, Sacke     | (l) Lampe, hell, Wolle        |
| (g) Garten, Genosse, Gegend | (r) Regen, Reise, werfen, rot |
| (f) Fahne, Volk, Phonetik   | (R) vier, Bär, Teller, Peter  |
| (v) werden, Revolution      | (J) Journal, Jüri, Shuckow    |
| (ʃ) Schach, Stuhl, rasch    | (pf) pflücken, Apfel, Kopf    |
| (z) lesen, so, Wesen        | (ts) Zoo, Weizen, Reduktion   |
| (s) was, wessen, Straße     | (tʃ) deutsch, Klatschen       |
| (h) Haus, herkommen, dacher |                               |
| (x) Dach, machen, Buch      |                               |
| (a) echt, euch, Chemie      |                               |

## *Sodda gaplarda ohang (Intonatsiya)*

Ma'lumki, har qanday muloqatda ohang juda muhim ro'l o'ynaydi. Zero, ohang so'z yoki gap mazmuniga ta'sir qilib, uni butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu sabab gapda so'zlar qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, gapning ohangi, urg'ulari va pauzalari ham shuncha ahamiyatlidir. Gaplarning darak, so'roq, undov (buyruq) kabi turlarga bo'linishida ham ohang katta ro'l o'ynaydi.

Nemis tilida (sodda) darak gaplarda ohang gap boshida ko'tarilib gap oxiriga kelib esa pasayadi. Odatda ohangning pastga tushishiga gap oxirida qo'llanilayotgan so'zning keyingi urg'usiz bo'g'larida ro'y beradi:

Wir haben Unterricht

Wir lernen Deutsch

Wir verstehen Phonetik

Der Lehrer diktiert und wir schreiben die Sätze

## **Tanishuv (Vorstellung)**

Guten Tag!

Mein Name ist Rochat Ismailova. Ich bin Ihre Lehrerin. Ich bin hier zu Hause. Ich bin also echte Urgentscherin.

Wie ist Ihr Name? Mein Name ist Karim Rachmanow.

Und Ihr Name bitte? Raschid Achmedow.

Wie ist Ihr Name? Hoshar Abdullajewa.

Und wie heißen Sie? Ich heiße Nigora Kadirowa.

Woher kommen Sie Fräulein Kadirowa? Ich komme aus Chiwa.

Uhd Sie, Fräulein Abdullajewa? Aus Samarkand.

Und wo sind Sie zu Hause, Herr Rachmanow? Ich bin in Buchara zu Hause.

## *V o k a b e l n*

Guten Tag!

Salom (xayirli kun)

Guten Morgen!

Salom (ertangiz xayirli bo'lsin)

Guten Abend

Salom (xayirli kech)

Gute Nacht

Salom (xayirli tun)

mein

Mening

Der Name, -ens, n

nom, ism

sein

bo'lmoq, emoq

Ich

men

Ihr (e)	Sizning
Unser (e)	bizning
Die Lehrerin, nen	muallima
hier	bu erda, shu erda
Zu Hause sein	uyi bo'lmoq
Ich bin in Samarkand	
zu Hause	Mining uyim Samarqandda
also	demak
echt	haqiqiy
die Urgentscherin	Urganchlik ayol
bitte	marhamat
heißen (hieß - geheißen)	atamoq, atalmoq
und	va
wie?	qanday?
wo?	qaerda?
woher?	qaerdan?
wohnen (wohnte, gewohnt)	yashamoq, turmoq
wommen (kam, gekommen)	kelmoq
aus	dan
aus Chiwa	Xivadan
das Fräulein, s	xonim
der Herr, n (e) n	janob

### *Wortfamilie (qardosh so`zlar)*

lehren	o'qitmoq
der Lehrer	o'qituvchi
die Lehrerin	ayol o'qituvchi
die Lehre	ta'limot

### *S y n o n y m e*

Wie ist Ihr Name?	} Ismingiz kim?
Wie heißen Sie?	

### *A n t o n y m e*

echt (haqiqiy)	- falsch (qalbaki)
kommen (kelmoq)	- gehen (ketmoq)

## LEKSIK MASHQLAR

1 – mashq. Gaplarni to'ldiring.

Wie ist Ihr Name?

Mein Name ist . . .

Wie heißen Sie?

Ich heiße . . .

Wie ist . . . Name?

. . . ist . . .

wie . . . Sie?

Ich . . . . .

2 – mashq. Gaplarni to'ldiring

Woher kommen Sie?

Ich komme aus \_\_\_\_\_

Woher kommen Sie?

Wir kommen aus \_\_\_\_\_

Wie ist Ihr Name?

Mein Name ist \_\_\_\_\_

Wie sind Ihr Name?

Unsere Namen sind \_\_\_\_\_

3 – mashq. Diologni o'qing, ona tiliga tarjima qiling.

- Mein Name ist Ruzmetow.

- Und Ihr Name bitte?

- Mein Name ist Hasanow.

- Woher kommen Sie Herr Hasanow?

- Ich komme aus Nukus.

- Wo wohnen Sie hier?

- Ich wohne Ulugbekstraße 4 (vier)

4 – mashq. Gaplarni ma'nosiga qarab moslashtirib o'qing.

Ich komme aus . . .

! hier

Ich bin . . . zu Hause.

! Samarkand

Mein Name ist . . .

! heiße

Ich . . . Nurumow.

! Aibekstraße 4

Ich wohne . . . .

! Nurumow

5 – mashq. Nemis tiliga tarjima qiling. Ismingiz nima? Mening ismim Abdulla Yusupo'v. Qaerliksiz? Men Xorazmdanman. Biz Toshkentda yashaymiz. Navoiy kochasi 4 – uyda turamiz.

## GRAMMATIKA

### Ot (das Substantiv)

Ma'lumki har bir til o'zining so'z boiligiga ega. So'zlar anglatadigan ma'nosi, yasalishi va gapda boshqa so'zlar bilan munosabatga kirish xususiyatlariga ko'ra so'z turkumlariga bo'linadi. Ot asosiy so'z turkimidan biridir. Har bir tilining ikkidan biri otdir. U narsa va hodisa nomlarini bildiradi va kim? (wer?), nima? (was?) so'roqlariga javob be'radi. Masalan:

Der Patient (bemor, mijoz)

Die Spritze (shpirts)

Das Bett (karavot)

Die Ärzte, pl. (shifokorlar)

Otlarning eng asosiy xususiyatlaridan biri shuki, ular borlikda mavjud narsalarni nomlaydi. Masalan:

Der Grund (tuproq)

Die Luft (havo)

Das Wasser (suv)

Das Feuer (olov)

Der Mensch (odam)

Das Tier (hayvon)

Der Vogel (qush)

Das Insekt (hashorat)

Nemis tilida otlar va otlashgan so'z turkumlari atoqli (der Eigename) va (der Gattungsname) bo'lishidan qat'iy nazar bosh harf bilan yoziladi.

Nemis tilida otlarda egalik katego'riyasi yo'q. Narsaning birovga qarashli ekanligi faqat egalik olmoshlari orqali anglashiladi.

Masalan:

xalqimiz – unser Volk

sog'ligingiz – diene Gesundheit

vatanim – meine Heimat

### **OTLARNING ROD KATEGORIYASI**

#### *(Das grammatische Geschlecht)*

Nemis tilida otlar biologik hamda grammatik rod kategoriyalariga ega. Lekin bu hodisa o'zbek tilida yo'q. Otlarning rod kategoriyasi artikl vositasida ifodalanadi va “der” artikl mujskoy (das Maskulinum, m), „die“ artikli jenskiy (das Femininum, f) va sredniy roddagi otlar uchun „das“ artikli (das Neutrum, n) qo'llaniladi.

Biologik rodlarning artikllar bilan ifodalanishi mantiqan asoslidir.

Masalan:

der Mann - erkak kishi (m. rod)

die Frau - ayol, xotin (j. rod)

der Ochs – ho'kiz (m. rod)

die Kuh – sigir (j. rod)

Lekin grammatik rod narsa va predmetlarning nima uchun ayrim bir rodga qarashli ekanligini mantiqan asoslab bermaydi. Unda muayyan bir qoida yo'q. So'zlarni anglatgan ma'nosi, qo'llanish o'rni yoki narsalarni kundalik hayotdagi vazifalariga qarab ularning rodini bilib bo'lmaydi. Ayrim rod yasovchi qo'shimchalar – er, -ler, -ling m. rod, -schaft, -keit, -um, -in, j. rod yoki – tum, -lein, -chen s. rodga xos ekanligini bildirishini e'tiborga olmasak, nemis tilidagi barcha so'zlarning rodini faqat lug'at yordamidagina bilish mumkin va o'rganish lozim. Masalan:

der Tisch – stol

die Tür – eshik

das Fenster – deraza

Yoki der Löffel – qoshiq

die Gabel – vilka

das Messer – pichoq

so'zlarini nima uchun uchulasi uch xil rodga mansub ekanligini tilshunoslar asoslab bera olmaydi. Ularni faqat lug'atdan yoki jonli til egasi yordamidagina bilish mumkin. Shuning uchun nemis tilini o'rganayotgan har bir kishi so'zlarni o'rganayotganda artikliga jiddiy e'tibor bilan qarashi va so'zni artikl bilan qo'shib ya'ni „daftar“ so'zi faqat „Neft“ emas, balki „das Neft“ deb o'rganishi kerak bo'ladi. Nemis tilini o'rganishda bu juda muhimdir.

Nemis tilining yana o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, unda qo'shma (ikki yoki undan ortiq so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan) otlar uchraydi. Bunga otning qaysi rodga qarashli ekanligi oxirgi otning artikliga qarab belgilanadi. Masalan;

das Krankenhaus = der Kranke – das Haus (kasalxona)

der Augenarzt = das Auge – der Arzt (ko'z do'kto'ri)

### ***NEMIS TILIDA KELISHIKLAR***

Kelishiklar odatda otning boshqa gap bo'laklariga (asosan kesim) munosabatini turlanishi orqali ko'rsatadi.

Nemis tilida to'rtta kelishik bor:

1. Bosh kelishik (der Nominativ)

2. Qaratqich kelishigi (der Genitiv)

3. Jo'nalish kelishiga (der Dativ)

4. Tushum kelishigi (der Akkusativ)

Bosh kelishik shaxs, narsa va hodisa nomlarini ifoda etib, wer?

(kim?), was? (nima?), so'roqlariga javob beradi.

Qaratqich kelishigi asosan mansublik ma'nosini bildirib, wessen?

(kimning?, nimaning?) so'rog'iga javob beradi.

Jo'nalish kelishigi esa harakatning narsaga (hodisaga) bo'lgan munosabatini ifodalaydi va wem? (kimga, nimaga?), wo? (qaerda?) wann? (qachon?) savollariga javob beradi.

Tushum kelishigi shaxs yoki narsaga nisbatan harakat yo'nalishini ifoda etib, wen? (kimni?), was? (nimani?), wohin? (qaerga) so'roqlariga jaob beradi.

### Artikl (der Artikel)

Artikl ot bilan birga qo'llanib, otdan oldin keladi va uning rodini, sonini, kelishigini ko'rsatadi.

Nemis tilida artikllar ikki xil bo'ladi: aniq artikllar der, die, das; ko'plikda die va noaniq artikllar ein, eine, ein. Noaniq artiklning ko'pligi yo'q. Aniq va noaniq artikllar kelishiklar boyicha turlanadi. O'zbek tilida artikl yoki unga o'xshash yordamchi so'z turkimi yo'q.

### Aniq artiklning turlanishi

Kasus kelishiklar	Maskulinum (Mujskoy ro'd)	Femininum (jenskiy ro'd)	Neutrum (Sredniy ro'd)	Plural (Ko'plik) (Hamma ro'd uchun)
Nominativ	der	Die	das	die
Genitiv	des	Der	des	der
Dativ	dem	Der	dem	den
Akkusativ	den	Die	das	die

### Noaniq artiklning turlanishi

Kasus kelishiklar	Maskulinum (Mujskoy ro'd)	Femininum (jenskiy ro'd)	Neutrum (Sredniy ro'd)	Plural (Ko'plik) (Hamma ro'd uchun)
Nominativ	ein	Eine	ein	-
Genitiv	eines	Einer	eines	-
Dativ	einem	Einer	einem	-
Akkusativ	einen	Eine	ein	-

Artikl aniqlik va noaniqlik ma'nolarini ifodalaydi. Gap borayotgan narsa yoki hodisa muloqot qatnashchilariga tanish bo'lsa aniq artikl, u muloqotda birinchi bora qo'llanilayotgan yoki notanish bo'lsa noaniq artikl qo'llaniladi. Masalan:

Der Dozent ruft einen Jungen an die Tafel.

Der Junge geht an die Tafel gern.

Agar ot oldidan egalik, ko'rsatish va so'roq olmoshlaridan biri yoki son va „kein“ inkor olmoshi kelsa, artikl ishlatilmaydi.

Masalan;

Mein Bruder ist Fernstudent.  
In jedem Stock gibt es ein Sprachlabor.  
Ich habe drei Söhne  
Er hat kein Heft mit.

### ***KISHILIK OLMOSHLARI*** ***(Die Personalpronomen )***

Artikl shunday so'z turkumi borki, u boshqa so'z turkimlari o'rnida qo'llanilishi mumkin. Bu kelishik olmoshlaridir. Ular shaxslarni “men, sen, u, biz, siz, ular” va narsa hodisalarni “u, ular” anglatib nutqda keng qo'llaniladi.

Men – biz so'zlovchi shaxs, sen – siz tinglovchi murojat qilinishi u – ular o'zga muhokama qilishi shaxsni anglatadi. Kishilik olmoshlari 3 shaxsga birinchi, ikkinchi, uchunchi shaxs birlik va ko'plik va ko'plik shakillariga ega. Ularning ko'rinishlari quyidagicha:

Singular	Plural
I – ich (men)	wir (biz)
II – du (sen)	ihr (siz)
III – er, sie, es (u)	sie (ular)
Höflicheitsform (Hurmat shakli)	Sie (siz)

Kisgilik olmoshlari kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

<b><i><u>Birlik</u></i></b>					
N.	ich	du	er	sie	es
G.	meiner	deiner	siener	ihrer	seiner
D.	mir	dir	ihm	ihr	ihm
Akk.	mich	dich	ihn	sie	es

<b><i>Ko'plik</i></b>				
N.	wir	ihr	sie	Sie
G.	unser	euer	ihrer	Ihrer
D.	uns	euch	ihnen	Ihnen
Akk.	uns	euch	sie	Sie

„haben, sein“ va „werden“ ko'makchi.

Haben, sein, werden fe'llari nemis tilini o'rganishning birinchi bosqichida muhim ro'l o'ynaydi. Chunki barcha sodda gaplar va ko'pchilik



iboralar shu fe'llar yordamida yasaladi. Undan tashqari fe'l zamonlari va nisbatlari yasalishida bu fe'llarning ahamiyati kattadir. Bu fe'llar ko'makchi vazifasida kelganda o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Quyida har bir fe'lga alohida – alohida to'xtalamiz.

1. „haben“ fe'li o'zbek tilida „biror narsaga ega bo'lmoq“, „biror narsasi“ bor bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Gapda tushum kelishigini boshqaradi.

Bu fe'lni o'rganish va uning ishtirokida gap tuzishda talabalar ancha qiynaladilar. Chunki uning o'zbek tilidagi ma'no ekvivalentlari „ega bo'lmoq“ – nimaga? Jo'nalish kelishigini, „bor bo'lmoq“ esa, kimda? nimada? So'rog'iga javob bo'lib, o'rin – payit kelishigini boshqaradi.

Masalan: „Menda kitob bor“ yoki „U katta obro'ga ega“ gaplarini nemis tiliga tarjima qilishda talabalar haben fe'li faqat tushum kelishigini boshqarib kelishinin unitib, uni o'rin – payit

Yoki jo'halish kelishigida qollashga harakat qiladilar va qo'pol xatoga yo'l qoyadilar. Zero, bu gaplar „Ich habe ein Buch“ va „Er hat großes Ansehen“ deb tarjima qilinishi kerak.

„Haben“ fe'li noto'g'ri tuslanuvchi fe'ldir. U Präsenda quyidagicha tuslanadi:

Birlik (Singular)	Ko'plik (Plural)
Ich habe	wir haben
Du hast	ihr habt
Er sie	sie haben
Sie hat	Sie haben (Hurmat ma'nosi)
Es	

2. „Sein“ fe'li o'zbek tilida „bo'lmoq“ fe'lining asosiy va qo'shimcha ma'nolariga mos keladi.

Ma'lumki, „bo'lmoq“ fe'li o'zbek tilida hozirgi zamonda deyarli qo'llanilmaydi. Nemis tilida esa „sein“ fe'li hozirgi zamonda albatta qo'llanilishi lozim. Buni unutilgan talabalar nemischa gap tuzganda sein fe'lini qo'llamay muayyan xatolarga yo'l qo'yadilar.

„Sein“ fe'li gapda ot kesimining bir qismi bo'lib keladi va o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. U ot kesimning qo'shimchalariga to'g'ri keladi. Masalan:

U talabadir. Karim spo'rtchi.

Er ist Student. Karim ist Sportler.

Xona yorug'. Men sog'man.

Das Zimmer ist hell. Ich bin gesund.

„Sein“ fe'li hozirgi zamonda quyidagicha tuslanadi:

Birlik (Singular)	Ko'plik (Plural)
Ich bin	wir sind
Du bist	ihr seid
Er	sie sind
Sie ist	Sie sind
Es	

3. „Werden“ yordamchi fe’li o’zbek tilida „Bo’lmoq“ (kelasi zamon ma’nosida) „biror darajaga erishmoq“ kabi ma’nolarini anglatadi. Masalan: Ich werde Lehrer. Men o’qituvchi bo’laman. Die Stadt wird größer und schöner. Shahar yanada kattaroq va go’zalroq bo’ladi.

Bu fe’l yordamchi va notog’ri tuslanuvchi fe’ldir, u Präsens da quyidagicha tuslanadi:

Singular	Hural
Ich werde	wir werden
Du wirst	ihr werdet
Er	sie werden
Sie wird	sie werden
Es	

### ***DARAK GAPLARDA SO’Z TARTIBI***

Voqea va hodisalarni tasdiq yoki inkor yoli bilan xabar qiluvchi gap darak gap deyiladi.

Nemis tilida darak gaplarda ikki xil so’z tartibi bor:

- 1) to’g’ri so’z tartibli (die gerade Wortfolga)
- 2) teskari so’z tartibli (die ungerade Wortfolge)

To’g’ri so’z tartibli darak gaplarda birinchi o’rnida doimo ega, ikkinchi o’rnida kesim va ulardan keyin ikkinchi darajali gap bo’laklari keladi:

Ich lebe in Urgentsch.

Mein Freund ist jetzt im Lesesaal.

Agar gap ikkinchi darajali gap bo’lagi bilan boshlansa, teskari so’z tartibli gap qolganiladi. Bu holda birinchi o’rinda ikkinchi darajali bo’lak, ikkinchi o’rnida kesim va so’gra esa ega kelad. Masalan:

In Chiwa lebt Barno

Zwei Kinder hat sie jetzt.

Darak gaplardagi har ikkala so’z tartibida ham kesimning o’rni qat’iydir. U doimo ikkinchi o’rnida qo’llanilishi lozim.

Heute arbeiten wir bis vier Uhr im Sprachlabor.

### ***GRAMMATIK MASHQLAR***

1 – mashq. Nuqtalar o’rniga tegishli aniq artikl qoyib ko’chirining

1. . . . Mädchen. 2 . . . . Junge. 3 . . . . Studentin. 4. . . . . Student.
5. . . . . Heft. 6. . . . . Kreide. 7. . . . . Buch. 8. . . . . Frau. 9. . . . Mann.
10. . . . . Lehre. 11. . . . . Lehrerin. 12. . . . . Institut. 13. . . . . Bruder.
14. . . . Universität. 15. . . . . Schwester. 16. . . . . Arzt. 17. . . . . Tafel.
18. . . . . Tisch. 19. . . . . Fenster. 20. . . . . Eltern.

2 - mashq. Birinchi mashqdagi so’zlarning oldida noaniq artikl qo’yib o’qing.

3 – mashq. Quyidagi so’roq so’zlarning qaiysi kelishikka oid ekanligini nomlang.

Wenn? . . . . Was? - . . . . Wer? - . . . . Wohin? . . . . Wem? - . . . .

Wen? - . . . . Wessen? - . . . . Wo? - . . . .

4 – mashq. Quyidagi gaplarni barcha shaxslarda tuslang. Ich bin Arzt. Ich habe Hunger. Ich werde krank.

5 – mashq. Nuqtalar o'rniga „sein“ fe'lini tegishli shaxs sonda qo'ying.

1. Der Arzt . . . . gut. 2. Du . . . . krank. 3. Wir . . . . Sportler. 4. Alle Studenten . . . . gesund. 5. Meine Mutter . . . . Krankenschwester. 6. Die Schülerin . . . . 7. Du . . . . faul. 8. Die Tafel . . . . sauber. 9. Ihr . . . . erkältet. 10. Mein Kind . . . . kräftig.

6 – mashq. Nuqtalar o'rniga „haben“ fe'lini tegishli shaxs sonda qo'ying.

1. Er . . . . ein Buch. 2. Das Mädchen . . . . ein Heft. 3. Du . . . . Bleistift. 4. Wir . . . . Hunger. 5. Er . . . . Grippe. 6. Sie . . . . Durst. 7. Das Institut . . . . zwei Fakultäten. 8. Ich . . . . Angina. 9. Das Kind . . . . Malaria. 10. Ihr . . . . keine Kreide.

7 - mashq. Nuqtalar o'rniga „werden“ fe'lini tegishli shaxs sonda qo'ying.

1. Wir . . . . Ärzte. 2. Du . . . . morgen gesund. 3. Er . . . . groß. 4. Die Gruppe . . . . größer. 5. Ihr . . . . Kosmonauten. 6. Das Kind . . . . Schüler. 7. Der Schüler . . . . Student. 8. Ich . . . . Chirurg. 9. Sie . . . . Kinderärzte. 10. Es . . . . gesund.

8 – mashq. Nuqtalar o'rniga „haben, sein, werden“ fe'llaridan mosini qo'ying.

1. Ich . . . . Arzt. 2. Er . . . . jung. 3. Sie . . . . gesund. 4. Wir . . . . alt. 5. Du . . . . Arzt. 6. Du . . . . Hunger. 7. Ihr . . . . faul. 8. Das Institut . . . . klein. 9. Das Mädchen . . . ein Buch. 10. Der Patient . . . . Grippe. 11. Die Angina . . . . schlecht.

9 – mashq. Quyidagi gaplarni nemis tiliga tarjima qiling.

1. Bola kasal. 2. U Gripp. 3. Institut katta. 4. Student tirishqoq. 5. Angina yomon. 6. Vrach yaxshi. 7. Sen yalqovsan. 8. Men shifokor bo'lmoqchiman. 9. Ular o'qituvchi bo'lmoqchi. 10. Institutda ikkita fakultet bor. 11. Xonada ikkita deraza bor.

10 – mashq. Nuqtalar o'rniga o'ng tomonda berilgan so'zlardan mo'sini qo'ying.

Der Patient hat . . . .	!	Angina
Die Studentin ist . . . .	!	gesund
Das Kind wird . . . . .	!	faul
	!	ein Buch
	!	krank
	!	schön
	!	Arzt

11 – mashq. Quyidagi gaplarni so'z tartibini aniqlang.

1. Choresm hat ein medizinisches Institut. 2. Hier sind zwei Fakultäten.

3. Alle Studenten sind fleißig. 4. Krank ist jemand. (hech kim) 5. Die Studenten werden Ärzte. 6. Dieser Beruf (kasb) ist in Choresm geliebt. 7. Hier . . . . eine Schule.

12 – mashq. To'g'ri so'z tartibli gaplarni teskari so'z tartibli gaplarga aylantiring.

1. Ich bin krank. 2. Du bist gesund. 3. Sie sind Ärzte. 4. Ihr seid Patiente. 5. Du hast Angina. 6. Wir haben Grippe. 7. Ihr werdet Kosmonauten. 8. Wir sind Lehrer. 9. Der Student ist faul. 10. Er wird fleißig.

13 – mashq. Quyidagi so'zlardan to'g'ri so'z tartibli gaplar tuzing.

1. krank, sein, du. 2. Das Buch, er haben. 3. werden, die Schule groß. 4. Die Fakultät, Studenten, haben, viele. 5. Angina, der Patient, haben. 6. Mein Name, Nodira, ist.

14 – mashq. Quyidagi so'zlardan teskari so'z tartibli gaplar tuzing.

1. werden, du, Kosmonaut. 2. haben, er, keine Eltern. 3. Die Schwester, schön, sein. 4. mein Bruder, ein Buch, haben. 5. interessant das Buch, sein. 6. die Malaria, sein, schlechte Krankheit, 7. Herr Rachmanow, sein, zu Hause, in Buchara. 8. Fräulein Abdullajewa sein, zu Hause, in Samarkand. 9. mein Name, sein Nigora.

## 2 – MASHG'ULOT

Fonetika	Bo'g'in. Unlilarning cho'ziq va qisqa o'qilishi. Transkriptsiya. So'roq gaplarda intonatsiya (ohang)
Leksika	Tarjimai hol. (Der Lebenslauf)
Grammatika	Otlarning turlanishi. So'roq gaplarda so'z tartibi. Otlarda ko'prik shaklining yasalishi.

### B o' g' i n

Til o'rganishda avvalo tovush talaffuzi keyin esa bo'g'in turadi. O'quvchi so'z bo'ginlarini ajrata olishi ya'ni birinchi bo'g'indagi tovushni ikkinchi bo'g'in tovushiga aralashtirib yubormasligi kerak.

So'zning bir nafas bilan aytiladigan bir yoki bir necha tovushdan iborat bo'lagiga bo'g'in deyiladi. Odatda so'zda qancha unli tovush bo'lsa, so'z shuncha bo'g'indan iborat bo'ladi,

masalan: Vi – rus (virus),

Pu – der (pudra).

Nemis tilida bo'g'inlar uch xil:

1. Ochiq bo'g'in – bu bo'g'inlar bir unlidan yoki unli bilan tugagan bo'g'inlardir.

A – ba (engsiz arabcha palto)

He – le – ne (ism)

Ma – li – ka (ism)

2. Yopiq bo'g'in – bunday bo'g'inlar undosh tovush bilan tugaydi, masalan:  
Test (sinov)

Kon – takt

3. Shartli yopiq bo'g'in – sodda so'z sifatida undosh bilan tugagan (Weg, Tag), biroq shakli o'zgarishi – ko'plik, kelishik, shaxs – son qo'shimchalari qo'shilishi bilan ( We – ge, Tag – ge) ochiq bo'g'inlarga aylanadigan bo'g'inlarga aytiladi. Bo'g'in aslan ochiq bo'lib, (sa – gen, schla – fen) shaxs – son qo'shimchasini olsa ham shartli yopiq bo'g'in hisoblanadi, masalan:

sa – gt, schlä – ft

## UNLILARNING CHO'ZIQ VA QISQA O'QILISHI

Nemis tilidagi unli tovushlar cho'ziq va qisqa o'qilishi bilan o'zbek tilidan farq qiladilar. Unlilar quyidagi hollarda cho'ziq o'qiladi:

1. Ochiq urg'uli bo'g'inda: sa – gen, fra – gen
2. So'zlarda ko'sh unli kelsa: aa Paar, Haar, Saal  
ee – Beet, Tee, Meer. oo – Boot, Moor.
3. “i” unlisidan keyin “e” cho'ziqlik belgisi kelsa:  
die, sie, liegen.
4. Unli harfdan keyin „h“ cho'ziqlik belgisi kelsa:  
fah – ren, Bahn, Lohn (haq)
5. Shartli yopiq bo'g'inda kelgan unlilar ham cho'ziq o'qiladi:  
ma – lt, ma – len, Tat, Ta – ten.

Unlilar quyidagi hollarda qisqa o'qiladi:

1. Yopiq bo'g'inda: das, was.
2. Unlidan keyin bir necha undosh harf kelsa; Wald, Stadt u.a.
3. So'zda qo'sh undosh yoki undosh harflar birikmasi uchrasa:  
Der Mann, der Tisch, das Pult

## SO'Z URG'USI

Nemis tilida urg'u odatda birinchi bo'g'inga (so'z o'zagiga tushadi).  
Masalan:

‘sehen, ‘hören, das ‘Land, die ‘Karte

Ajraladigan old qo'shimchali so'zlarda ham urg'u birinchi bo'g'inga, ya'ni old qo'shimchalarga tushadi: die ‘Abreise, ‘aussagen, der ‘Eingang.

Ajralmaydigan old qo'shimchalar urg'u olmaydi, bunday so'zlarda urg'u so'z o'zagiga tushadi: be'kommen, ge'fallen, die Er'zählung, emp'fangen.

Chet tilidan kirgan soʻzlarda esa urgʻu, maskur soʻz qabul qilingan tildagi urgʻu qoidalariga binoan boʻladi: der Stuʻdent, der Agroʻnom, die Faʻbrik, die Phoʻnetik, der Sepʻtember.

Qoʻshma soʻzlarda urgʻu qoʻshma soʻzning birinchi komponentiga tushadi. Bir necha oʻzakdan iborat boʻlgan qoʻshma soʻzlarda esa ikkita urgʻu boʻladi. Ularning biri bosh urgʻu (die Hauptbetonung) boʻlib, qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismiga tushadi, ikkinchisi esa ikkinchi darajali urgʻu boʻlib (die Nebenbetonung), qoʻshma soʻzning oxirgi qismiga tushadi:

Der Hör, saal, das `Abend, brot, das `Kranken, haus, die `Untergrund, bahn.

Gapda alohida taʻkidlab aytilgan soʻz loʻgik urgʻu oladi. Bu soʻzga qoʻsh (loʻgik) “urgʻu qoʻyiladi. Masalan:

Er schenkt dem Kind ein Spielzeug.

### TRANSKRIPTSIYA (FONETIK YOZUV)

Transkripsiya soʻzlarning aytilishini yozuvga tushiradigan maxsus imlo sistemasidir, ayʻni tovushlar qanday eshitilsa shunday yozilishi kerak. Nemis tilining nutq tovushlarini ifodalash va ularning talaffuzini yozuvda koʻrsatish uchun quyidagi transkripsion belgilar qabul qilingan:

Unlilar uchun: [a] [a:] [ɔ] [o:] [v] [u:] [ʌ] [i:] [i] [ɛ] [ɛ:] [e:] [æ] [Ø] [y] [y:] [ə]

Diftonglar uchun: [ae] [ao] [ɔ Ø]

Undoshlar uchun: [p] [b] [t] [d] [k] [g] [f] [v] [s] [z] [ʃ] [ʒ] [G] [j] [x] [h][m] [n] [ŋ] [l]

[r - R]

Affrikatlar uchun: [pf] [ts] [tʃ]

### SOʻROQ GAPLARDA OHANG.

Soʻroq gaplarda ohang soʻroq gapning turiga qarab ikki xil boʻladi: soʻroq soʻzsiz soʻroq gap va soʻroq soʻzli soʻroq gap. Soʻroq soʻzsiz soʻroq gaplarda ohang gap oxirida koʻtariladi:

Kommst du? 

Bist du Stu dent? 

Hast du das Diktat geschrieben? 

Soʻroq soʻzli soʻroq gaplarda odatda soʻroq soʻz urgʻu olmaydi, ohang esa feʻl (kesim) da koʻtariladi:

Was fehlt ihm? →

Wann kommt er? →

So'roq so'zli so'roq gaplarda ohang ba'zan o'zgarib, ko'tarilib – pasayib yoki pasayib – ko'tarilishi ham mumkin:

Was machst du? →

Was machst du? →

Was machst du? →

### FO'NETIK MASHQLAR

1 – mashq. Quyidagi so'zlarni lug'at yordamida bo'g'inlarga ajratib ko'chiring.

Die Tafel, das Fenster, das Datum, der Lappen, die Wand, der Vater, der Junge, der Fuß, die Lupe, Ada, fragen, lesen, der Tag, die Malaria, antworten, das Mädchen, sagen, das Heft, das Kino, der Kuli, die Lehrerin, Uta, der Hut.

2 – mashq. Yuqoridagi so'zlarni (ochiq) quyidagi tartibda bo'gin guruhlariga ajratib yozing:

- a) faqat ochiq bo'ginnli so'zlar
- b) faqat yopiq bo'g'inli so'zlar
- c) shartli yopiq bo'g'inli so'zlar
- d) ochiq va yopiq bo'g'inda uchraydigan so'zlar

3 – mashq. „a“ unlisining cho'ziq va qisqa o'qilishiga e'tibor bering.

- |                 |                       |
|-----------------|-----------------------|
| a) Gram – Gramm | b) Apparat [apa'ra:t] |
| Kam – Kamm      | Fasan [fa'sa:n]       |
| Saat – satt     | Basar [ba'za:r]       |
| Staat – Stadt   | Kanal [ka'na:l]       |
| Wahl – Wall     | Amerika [ame:rika]    |
| Lag – Lack      | Europa [ɔ Ø' ro:pa]   |

4 – mashq. „o“ unlisining cho'ziq va qisqa o'qilishiga e'tibor bering.

- |                 |                        |
|-----------------|------------------------|
| a) Ofen – offen | b) Moral [mo'ra:l]     |
| Boot – Bord     | Lokal [lo'ka:l]        |
| Koma – Komma    | Kontrolle [kɔn'trol ə] |
| wohnen – Wonnen | Monolog [mono'lo:k]    |
| Sohlen – sollen | Komando [kɔ'mando]     |

5 – mashq. Quyidagi soʻzlarda „o“ va „a“ tovushlarini choʻziq va qisqa holatlariga qarab oʻqing.

- |               |                  |
|---------------|------------------|
| a) Aar – Ohr  | b) Affen – Offen |
| baden – boden | Bann – Bonn      |
| Gras – groß   | Kamm – komm      |
| Hase – Hose   | Dach – doch      |
| Rasen – Rosen | Rasse – Rosse    |

6 - mashq. „u“ unlisining choʻziq va qisqa oʻqilishiga eʼtibor bering.

- |                   |                           |
|-------------------|---------------------------|
| a) Ruhm – Rum     | b) Struktur [strʊkʻtu:r]  |
| Mut – Mutter      | Kurator [kura:tʊr]        |
| schult – Schuld   | Muskulatur [mʊskulaʻtu:r] |
| Schule – Schulden | Makulatur [makulaʻlu:r]   |
| Kur – kurz        | Dukaten [duʻka:t ən]      |

7 – mashq. „i“ unlisining choʻziq va qisqa oʻqilishiga eʼtibor bering.

- |                           |                             |
|---------------------------|-----------------------------|
| a) bieten – bitten        | b) Diktat [dikʻta:t]        |
| Glied – glitt             | Universität [uniʋɛrziʻtɛ:t] |
| ihm – im                  | frisieren [friʻzi:rən]      |
| Liest – List              | Philosophie [fɪloʻfi:]      |
| Miete – Mitte             | zirkulieren [tsɪrkuʻli:rən] |
| c) beten – betten – bäten |                             |
| Feder – Vetter – Väter    |                             |
| Seele – selber – Säle     |                             |
| Tee – Teller – Täler      |                             |

8 - mashq. „ü“ unlisining choʻziq va qisqa oʻqilishiga eʼtibor bering.

- |                 |                           |
|-----------------|---------------------------|
| a) Düne – dünne | b) Hypnose (hypʻno:zə)    |
| Hüte - Hütte    | Symbol (zymbol)           |
| Lüge – Lücke    | Büro (byʻro:)             |
| Tür – Türme     | Physik (fyʻzi:k)          |
| grüßen – küssen | Psychologie (psyʋoloʻgi:) |

9) „ö“ unlisining choʻziq va qisqa oʻqilishiga eʼtibor bering.

- |                     |                             |
|---------------------|-----------------------------|
| a) Röslein- Rößlein | b) Ökonomie (Økonoʻmi:)     |
| Chöre – Körbe       | Ösrtogen (æstroʻge:n)       |
| Hörer – Hörner      | Komödiant (kɔmʃhdɪʻant)     |
| Köhler – Köln       | Ödem (Øʻde:m)               |
| Tönchen – Tönnchen  | Föderation (f Øderatsiʻo:n) |



## LEBENS LAUF

Ich heie Alimowa Barno. Ich bin am 22. Dezember 1981 in der Stadt Urgentsch geboren. Ich bin 17 (siebzehn) Jahre alt. Mit 7 Jahren ging ich in die Schule. Ich lernte gut. Von Kindheit an interessierte ich mich fr Medizin. Ich wollte rztin werden. Nach der Beendigung der Schule ging mein Wunsch in Erfllung. Jetzt bin ich Studentin des Urgentscher Medizinischen Instituts.

